



UDK 37.016.57

O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI

(PhD) Jumaniyozova Sanobar Kadambayevna

*Toshkent farmatsevtika instituti akademik litsey biologiya fani o'qituvchisi
pedagogika fanlari falsafa doktori
sanobarjumaniyazova7@gmail.com*

(PhD) Nazira Ochilovna Ro'ziyeva

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitetining Toshkent filiali o'qituvchisi pedagogika fanlari falsafa doktori
E-mail: naziraochilovna87@gmail.com.*

Anotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalari qatori, akademik litseylarda o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammolardan biri sifatida qaralib, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga e'tibor ortib bormoqda. Iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta'lim muassasalariga saralab olish, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va



o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar eng dolzarb sanaladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, individualizatsiya, kompetensiya, komponent, aniqlik, assistent, tamoyil, simptom, farmatsevtika, tamoyil, innovatsiya.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ПО БИОЛОГИИ В СОВРЕМЕННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ.

Джуманиёзова Санобар Кадамбаевна

*Ташкентский фармацевтический институт, преподаватель биологии в
академическом лицее, доктор педагогических наук (PhD)*

sanobarjumaniyazova7@gmail.com

Аннотация: Сегодня, как и во всех учебных заведениях нашей страны, организация самостоятельной учебной деятельности учащихся в лицеях, развитие у них самостоятельного мышления, навыков принятия решений и творческих способностей рассматривается как одна из педагогических проблем, и все больше внимания уделяется проведению научных исследований в этой области. Наиболее актуальными задачами являются выявление талантливой молодежи, привлечение ее в лицей, отбор в высшие учебные заведения, увеличение доли часов самостоятельной работы, развитие у учащихся навыков самостоятельного обучения, критического и творческого мышления, системного анализа и предпринимательских навыков, внедрение в образовательный процесс методик и технологий, направленных на укрепление компетенций, направление образовательного процесса на формирование практических навыков, и в этой связи – широкое внедрение в



образовательный процесс передовых педагогических технологий, учебных планов и учебно-методических материалов, основанных на международных образовательных стандартах.

Ключевые слова: креативность, индивидуализация, компетентность, компонент, точность, оценка, принцип, симптом, фармацевтический, принцип, инновация.

**MODERN METHODS OF ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING
ACTIVITIES OF STUDENTS IN BIOLOGY IN TODAY'S INNOVATIVE
EDUCATIONAL CONDITIONS MODERN METHODS OF ORGANIZING
INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES OF STUDENTS IN BIOLOGY
IN TODAY'S INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITION**

Jumaniyozova Sanobar Kadambayevna

*Tashkent Pharmaceutical Institute, Academic Lyceum Biology Teacher, Doctor of
Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

sanobarjumaniyazova7@gmail.com

Abstract: Today, as in all educational institutions in our country, the organization of independent educational activities of students in academic lyceums, the development of students' independent thinking, independent decision-making, and creative abilities is considered one of the pedagogical problems, and increasing attention is being paid to conducting scientific research in this regard. The most urgent tasks are such as identifying talented young people, attracting them to academic lyceums, selecting them for higher education institutions, increasing the share of independent study hours, developing students' independent learning, critical and creative thinking, systematic analysis, and entrepreneurial skills, introducing methodologies and technologies aimed at strengthening competencies



in the educational process, directing the educational process to the formation of practical skills, and in this regard, widely introducing advanced pedagogical technologies, curricula, and teaching and methodological materials based on international educational standards into the educational process.

Keywords: creativity, individualization, competence, component, accuracy, assessment, principle, symptom, pharmaceutical, principle, innovation.

Kirish. Mustaqil ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quvchilar oldiga ma'lum bir ta'limiy muammoni hal etishni qo'yib, bu jarayonda o'quvchining mustaqil ravishda fikr yuritishi muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchilar kutilmagan nostandart vaziyatlarda tezkor, aniq qarorlar qabul qila oladi. Akademik litseylarda mustaqil ta'limni tashkil etish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsada, ayrim akademik litseylarda o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish va olib borish faqatgina fan o'qituvchisining pedagogik yuklamasidagi kerakli soatni bajarish uchun amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bu holatda o'quvchilar mustaqil ta'limining samaradorligi kutilgandek bo'lmaydi. Psixolog olimlar mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish uchun mustaqil ta'limning maqsadi, motivlarini bilish muhim ekanligini ta'kidlashadi. Mustaqil ta'lim jarayonlarini tashkil etishdan ko'ra, ushbu motivlarni shakllantirishni boshqarish murakkabroq jarayon hisoblanadi.

Asosiy qisim. Fikrimizcha, akademik litsey o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish imkoniyati mavjud:

1. Bilimlarni o'zlashtirish va xulq-atvorning yaxshilanishi;
2. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali vaqtdan unumli foydalanish;
3. Individualizatsiyaning yuvoriligi;



4. Ko‘plab yangi materiallarni o‘zlashtirish;
5. O‘z tajribalari va iqtidorini mustaqil ravishda oshirib borish;
6. Biologik fanlarni o‘zlashtirishdagi mustaqil faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi.
7. O‘quv topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarganda, o‘z-o‘zidan qoniqish hissining paydo bo‘lishi
8. O‘z-o‘ziga baho berish;
9. O‘zini yetuk shaxs sifatida rivojlantirish, istiqbolli rejalar tuzish;
10. O‘z individual qobiliyatlari, imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘z iqtidorini namoyish etish.

Mustaqil ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan mustaqil ta’lim topshiriqlari o‘quvchilar oldiga ma’lum bir ta’limiy muammoni hal etishni qo‘yib, bu jarayonda o‘quvchining mustaqil ravishda fikr yuritishi muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Mustaqil faoliyat olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar kutilmagan nostandart vaziyatlarda tezkor, aniq qarorlar qabul qila oladi. Akademik litseylarda mustaqil ta’limni tashkil etish borasida bir qator ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsada, ayrim akademik litseylarda o‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish va olib borish faqatgina fan o‘qituvchisining pedagogik yuklamasidagi kerakli soatni bajarish uchun amalga oshirilmoqda. Ko‘rinib turibdiki, bu holatda o‘quvchilar mustaqil ta’limining samaradorligi kutilgandek bo‘lmaydi. Psixolog olimlar mustaqil ta’limga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish uchun mustaqil ta’limning maqsadi, motivlarini bilish muhim ekanligini ta’kidlashadi. Mustaqil ta’lim jarayonlarini tashkil etishdan ko‘ra, ushbu motivlarni shakllantirishni boshqarish murakkabroq jarayon hisoblanadi. Shu sababli, M.M.Zabbarova o‘quvchilarning mustaqil ta’lim motivlarining quyidagi to‘rtta guruhini ajratadi: hayotda o‘z o‘rnini belgilash, hayotiy rejalarga tayanmagan holda bilishga qiziqish, harakterni mustaqil



takomillashtirish, qobiliyatlarni rivojlantirish, qiziqishlarni rivojlantirish. Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarni bajarishdagi faolligi jiddiy motivatsiya yuzaga kelgandagina rivojlanishi mumkin. Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ishlarni bajarishdagi faollashtiruvchi motivlarning tashqi, ichki va ta'limiy turlari ajratiladi.

Tashqi motiv – ta'lim oluvchilarning ta'lim olish va ta'lim muassasasidagi natijalarga bog'liqligi hisoblanadi.

Ichki motiv – ta'lim oluvchilarning ta'lim olish va oliy ta'lim muassasiga kirish ishtiyoqi, uning tanlagan kasbiga mosligi hisoblanib, yuuni akademik litseylarda o'quvchilarning oliy ta'lim muassasasiga kirishgacha bo'lgan vaqtda aniqlash mumkin.

Ta'limiy motiv – ta'lim oluvchilar tomonidan bajarilayotgan ishlarning o'zi uchun foydali ekanligini anglab yetishi jarayonida paydo bo'ladi. Ta'lim oluvchilar amalga oshirayotgan ishning muhim ekanligini dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirishda hamda o'z bilimlarini kengaytirishda ekanligini tushunib yetishlari lozim bo'ladi. Bunda ularga mustaqil ishlarning ijobiy natijasi ma'ruza materiallari, laboratoriya, amaliy va seminar mashg'ulotlarini yaxshiroq tushunib yetishlarida ularga asqotishini isbotlab berish lozim. I.P.Podlasiy mustaqil ta'lim motivlarining quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi: ijtimoiy, bilish, kasbiy-qadriyat, estetik, kommunikatsion, an'anaviy-tarixiy, amaliy-pragmatik. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, akademik litseylarda biologiya fanini o'qitishda o'qituvchi avvalo, o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishini faollashtiruvchi quyidagi ta'limiy motivlarni aniqlashi va ushbu motivlardan unumli foydalanishi zarur.

1. O'quvchilar amalga oshirayotgan ishning manfaatligi. Agar o'quvchi badarayotgan ish natijalaridan dars mashg'ulotlarida, laboratoriya mashg'ulotlarida qanchadir miqdorda foydalansa, mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Masalan, biologiya fanidan "Biosferadagi inson faoliyati bilan bog'liq global ekologik muammolar" mavzusi bo'yicha o'zlashtirgan



bilimlaridan “Global ekologik muammolar” mavzusida infografika tuzish topshirig‘ini bajarishda foydalanishlari ularda ushbu mustaqil topshiriqni bajarish motivini oshiradi. 2. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu o‘quvchilarning akademik litseylardagi tajribaviy-konstruktorlik yoki metodik ishlarni bajarishdagi faol ishtiroki hisoblanadi. Masalan, tajriba maydonchalarida tirik organizmlardagi mavsumiy o‘zgarishlar, belgalarning irsiylayaishini o‘rganish maqsadida kuzatish va tajribalar o‘tkazish, turli mavzularda ma’ruzalar va ko‘rgazmali materiallar tayyorlashdagi faol ishtiroki ularning faolligini oshiradi. 3. Fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan musobaqalar, ko‘rik tanlovlar, anjuman va seminarlarda ishtirok etishi. Bunga akademik litseylar o‘rtasida shahar, viloyat va respublika miqyosida o‘tkaziladigan fan olimpiadalari, ko‘rik tanlovlarni misol qilish mumkin. 4. Bilimlarni nazorat qilish motivi. Ushbu motiv ta’lim jarayonlarida o‘quvchilar o‘rtasida musobaqalashish jarayonini qujudga keltiradi. Akademik litseylarda biologiya fanidan auditoriyadan tashqari ishlarda o‘tkaziladigan “Zakovat” intellektual o‘yinlari va boshqa shu kabi o‘quvchilarni bellashuvga undaydigan ishlar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini faollashtirishga motiv bo‘la oladi. 5. O‘quvchilarni ta’lim jarayonida erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatlari uchun rag‘batlantirish. A.T.G‘ofurov va J.O.Tolipovalarning fikricha, o‘qitishda o‘quvchilarning faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari guruhi ta’lim jarayonida pedagogik ragbatlantirish orqali o‘quvchilarning yanga o‘quv materialini egallashlarida ishtiyoq va faollikni ta’minlovchi ijobiy asoslanishlarni vujudga keltiradi. Shu sababli, o‘quvchilarni o‘z vaqtida ob’ektiv baholash va rag‘batlantirish ularning mustaqil ish faoliyatini rivojlantiradi. 6. Auditoriya va undan tashqarida bajariladigan mustaqil ishlarni individual bajarishga erishish. Bu kabi individual ishlar biologiyadan qo‘shimcha o‘quv adabiyotlarini o‘rganish, elektron ta’lim resurslari vositasida ijodiy izlanishlarini tashkil etish, maktab tajriba maydonchalarida tirik organizmlardagi mavsumiy o‘zgarishlar, belgalarning irsiylanishini o‘rganish maqsadida kuzatish va tajribalar o‘tkazish kabi



ishlar kiradi. Mazkur motivlarni ta'minlashda o'qituvchining o'zi asosiy motivlardan biri hisoblanadi. Chunki, o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatida yordamchi, maslahatgo'y, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, muvaffaqiyatlarga undovchi bo'lishi lozim. O'quvchilarning ta'lim olishi ularning umumiy rivojlanishini ta'minlashga yordam bersa, mustaqil bilim olishi esa ularning shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'quvchilarning mustaqil bilim olishini ta'minlashga qaratilgan topshiriqlar shunday ishlab chiqilish kerakki, bu jarayonda o'quvchining birgina kichik muvaffaqiyatga erishishi uning mustaqil ta'lim faoliyatni faol olib borishga undovchi psixologik holatini yaxshilashi lozim.

Fikrimizcha, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi va biologik kompetentligini mustaqil ta'lim asosida rivojlantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda tabiiy fanlarga doir muammolar (ekologik muammolar, atrof-muhit muhofazasi, inson va tabiat munosabatlari va boshqalar)ni hal qilishga qaratilgan interfaol usullardan foydalanish. Mustaqil ta'limni tabiiy-biologik o'yinlar asosida tashkil etish. Biologiya fani mavzulariga oid davra suhbatlari, seminarlar, bahs-munozaralar tashkil etish. Biologiya fani bo'yicha amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, loyiha ishlarini o'tkazishda axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ijobiy va salbiy tomonlari

MUSTAQIL TA'LIM FAOLIYATI	
Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
Mustaqil ta'lim faoliyati bilan istalgan joyda, istagan vaqtda, istagancha shug'ullanishlari mumkin.	O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning hujjatli dalillari yo'qligi
Mustaqil ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish o'quvchilar uchun doim qiziqarli va qulay.	O'quvchilar mustaqil ta'lim faoliyatida yo'l-yo'riqlar ko'rsatib beradigan



	o'qituvchilar bilan ishlashda o'qituvchilarning vaqti bo'lmasligi
Mustaqil bilim egallash orqali o'quvchilar o'zlariga zaruriy ma'lumotlarga ega bo'ladilar hamda o'z vaqtlarini unumli sarflaydilar.	Mustaqil ta'lim faoliyati o'quvchilardan sabr-toqat va irodati talab etadi.
Mustaqil ta'lim faoliyatida o'quvchilar o'zlariga qiziqarli va sevimli bo'lgan mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar va bu yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.	Mustaqil ravishda biron topshiriqni bajarish (ayniqsa auditoriyadan tashqarida) o'quvchi uchun qiyinchilik tug'diradi.
O'quvchilarga beriladigan mustaqil ta'lim topshiriqlari o'quv dasturlari va Davlat ta'lim standartlari, malaka talablariga mos kelishi	O'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil ta'lim topshiriqlarining ba'zi holatlarda o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga mos kelmasligi
Mustaqil ta'lim topshirig'ini amalga oshirish uchun aniq vaqtning belgilanishi	O'qituvchi tomonidan ba'zi holatlarda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish bo'yicha aniq yo'l-yo'riqlarning ko'rsatilmasligi
Mustaqil ishlarni bajarishda o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi	Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati uchun yetarli shart-sharoitlar (texnik vositalar, o'quv jihozlari)ning yaratilmaganligi

Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun akademik litseylar tomonidan quyidagi didaktik shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiq:

1. Akademik litseyning moddiy texnik bazasining talab darajasida ekanligi.



2. O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun axborot resurs markazining mavjudligi va uning o'quvchilar uchun kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi.
3. O'quvchilarga mustaqil ta'lim faoliyati bilan auditoriyada ham, auditoriyadan tashqarida ham shug'ullanish imkoniyatining yaratilishi;
4. O'quvchilarning mustaqil ishlariga kiritilgan topshiriqlarning talab darajasida tayyorlangan bo'lishi hamda mazmunining asoslanganligi.
5. O'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarga taqdim etiladigan mustaqil ishlarni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish va o'quvchilarga tegishli ko'rsatmalar berish.

Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish va kutilgan natijaga erishishdir. Innovatsion ta'lim sharoitida biologiya darslarida loyihalash texnologiyasidan foydalanishning asosiy mohiyati - fan bo'yicha biron bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning mavzu mazmuni va mohiyatiga qiziqishlarini oshirish, mustaqil ta'limda loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishlarini, fanlararo integratsiya yondashuvini amalga oshirish hisoblanadi.

Xulosa. Umuman olganda, mustaqil ta'lim faoliyatida zamonaviy usullar va texnologiyasidan foydalanilganda o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda mustaqil qo'llab, bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, aqliy faoliyat usullarini egallaydi, mustaqil shaxs sifatida intellektual rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi ortadi bu bugungi kunning zamon talabadir. Bu borada mustaqil ta'lim jarayonini modellashtirish, o'quvchilarning vaqtini unumli tashkil etishga yo'naltirilgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Axunova G.N., Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Zamonaviy ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2009. -206 b.
2. Dilova N.G. Ta'lim muassasalarida innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etish yo'llari. Scientific progress .Volume 2 Issue 7, 2021.-775-781 b.
3. Djalolov B. Informations tahdidlarga qarshi kurashishda ta'lim jarayoniga mediasavodxonlik elementlarini singdirish masalalari. “Ilmiy-pedagogik va o'quv-metodik nashrlar orqali informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish: profilaktika, texnologiya, mexanizm” respublika ilmiy amaliy konferensiya to'plami. – T.: 2017. 131.
4. Ergasheva G.S. Biologiya fani ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish vosita va usullari. // Maktabda biologiya fani jurnali.. 2009. 4-son. – Toshkent,
5. S.Q.Jumaniyazova “Akademik litsey o'quvchilari uchun Biologiya fanidan masala yechish metodikasi”. “Ilm fan va ta'limda innovatsion yondashuvlar, muammolar, taklif va yechimlar” 16-sonli Respublika ilmiy kanferensiya.
6. S.Q. Jumaniyazova O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari”, International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Hosted from Madrid, Spain <https://intconf.online> 25.02.2025. ISSN (E)-2184-1334.
7. Ro'ziyeva G.T. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash. O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2022. - 183-185 b.
8. Bakiyev D.T., Xo'janazarov O'.E., Ro'ziyeva N.O. Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali (elektron jurnal). - Toshkent, 2025. - 11 son. - B. 1580-1587.



9.Ruziyeva N.O., Khujanazarov U.E., Baxtiyorova D.T., Abdullayeva A.K. The Teaching Methodology of The Medicinal Plants of Cupressaceae Family // European International Journal of Pedagogics. - Germany,

Internet saytlar:

<file:///C:/Users/User/Downloads/komponenty-professionalnoy-kompetentnosti-uchiteley-biologii.>

<pdfhttps://corp.kaltura.com/blog/what-is-innovation-in-education/>